# Erkin va farovon hayotimiz kafolati

Qomusimiz - nomusimiz. Bu fikr Asosiy qonunimiz Konstitutsiyaga daxldordir. Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qishloq va suv xoʻjaligi energiya taʼminoti fakultetiga qarashli 2-Talabalar turar joyining Maʼnaviyat - maʼrifat xonasida 2018 yilning 7 dekabr kuni soat 18.00.da “Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish” kafedrasi professor-oʻqituvchilari va Oʻzbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish fakulteti hamkorligida Konstitutsiya kuniga bagʻishlangan yuqoridagi sarlavha ostida suhbat oʻtkazildi.

Oʻzbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish fakulteti podpolkovniki Ulugʻbek Raximov “Siz konstitutsiyani bilasizmi” mavzusida maʼruza bilan ishtirok etdi. U barcha ishtirokchilarni Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganiga 26 yil toʻlgani munosabati bilan tabrikladi. Soʻngra Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiya boʻyicha batafsil maʼlumotlar berdi. Maʼruzadan keyin podpolkovnik Ulugʻbek Raximovga talabalar ayniqsa, birinchi bosqich talabalari bir qancha savollar berib tegishli javoblarni olishdi.

“Qishloq va suv xoʻjaligi energiya taʼminoti” fakulteti Maʼnaviyat-maʼrifat ishlari boʻyicha dekan muovini
Sh. O. Berdiyev axboroti
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov